

Rangtasvir turlari

Monumental (devoriy) rangtasvir – san’atning eng qadimgi turi hisoblanib, unda rasmlar asosan katta hajmlarda devorlarga chiziladi. Ko’p ming yillar oldin odamlar o’zlarining turmushlarini, ov manzaralarini, hayvonlar tasvirini qoyalarda va g’orlarda aks ettirishgan. Shunday qilib, tasviriy san’at poydevori – toshga o’yilgan tasvirlar paydo bo’lgan.



Graffiti – bu ko’cha rangtasvir san’ati. Bo’yoq yoki siyoh bilan devorlarga chizilgan har qanday rasm yoki yozuvlar graffiti san’ati namunasi hisoblanadi.



Benksi (Buyuk Britaniya)
“Oppog’oy”, graffiti



Inkuzart (Toshkent)
“Jadidlar”, graffiti

Monumental rangtasvirning to'rtta turi bor: freska, vitraj, panno va mozaika.



Freska – nam suvoq ustidan tushiriladigan devoriy tasvir.

Vitraj – rang-barang shisha bo'laklaridan yig'ilgan rasm.



Afrosiyob elchixonasi zalidagi devoriy tasvirlar (Samarqand)

Mozaika – tosh yoki sopol (keramika) bo'laklaridan devorlarga ishlangan rasm yoki naqsh.



“Mozaika” so'zi italyan tilidan olingan bo'lib, “bo'laklardan yig'ilgan” degan ma'noni anglatadi. Mozaika usulidagi rasmlarni yaratish uchun tosh, smalt (rangli shisha bo'laklari), keramika, yog'och hamda metall kabi keng tarqalgan tabiiy materiallardan foydalaniladi.

Mozaikani qadimgi binolarning old va yon tomonlarida, shuningdek, Toshkent metropolitenida uchratish mumkin.



Vladimir Burmakin ishlagan mozaika ("Paxtakor" metro bekati)



1. Tasviriy san'atning qanday turlarini bilasiz?
2. Rangtasvir nima?
3. Monumental rangtasvirni qayerlarda ko'rish mumkin?
4. Sizningcha, rangtasvirda asosiy ifoda vositasi nima?
5. Tasviriy san'atning qaysi janrlarini bilasiz?



Rangtasvirni ifodalashning asosiy vositalaridan foydalanib, rasm chizing.